



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 416 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
Alimov Jamshid Ravshanovich	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
Yorkulov Zafarjon Bakirovich	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
Dilnura Rustamovna Xamrayeva	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
Rahmatova Nasiba Sobirovna	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
Sobir Azizov	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
E. E. Jumayev	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
Jumayeva Gulxan Amrullayevna	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
Omonova Maftuna Shermatovna	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
Sevara Alimurodova, Ayubova Said	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
Poyonova Fazilat Olimovna	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-subyektiv pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	194
Temirova Shoxsanam Komilovna	
O'zbek tilidagi lingvomadaniy kollokatsiyalarning assotsiativ-semantik xususiyatlari	201
Boymirova Dilshoda Oblayor qizi	
Методы развития компетенций будущих учителей начальной школы в области создания текстов	208
Хаитова Нодира Бафроевна	

Inklyuziv maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvida madaniy-tarixiy va ekologik yondashuvlar integratsiyasi	216
Mengliyeva Gavhar Ibrohim qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida induktiv metodlardan foydalanishning xorijiy tajribasi	220
Mirazimova Muxabbat Normatovna	
Virtual muzeylar orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	225
To'ranazarova Muxlisaxon Davlatjon qizi	
Қорақалпоқ, туркман ва инглиз эртақларида образли нутқнинг миллий моделлари: фразеологизм, ранг ва маиший тимсоллар	230
Жепбарова Саят Курбанмиратовна, Жаумитбаева Перийзат Караматдиновна	
Statistical Analysis of Experimental Work and Evaluation of Educational Effectiveness in Teaching Bioethics	233
Salimova Malika Rashidbekovna	
Talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	240
Axatova Sabina Qo'shmurod qizi	
Talabalarda sport kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	247
Ismatov Feruz Mamarasulovich	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini integrativ o'qitish zarurati va o'ziga xos xususiyatlari	254
Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi	
Ingliz tilini o'rganishda motivatsiya va o'quvchilarni rag'batlantirish usullarining ahamiyati	258
Sirojov Daler Kironboyevich	
Mikrokredit tashkilotlarini vujudga kelishi va bekor bo'lishining huquqiy asoslari	263
Madumarov Talantbek Tolibjonovich, Qalandarova Mubinabonu Fayziddin qizi	
Oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini aksiologik modernizatsiyalashning psixologik mexanizmlari... ..	268
Taylanova Sh. Z., Turayeva Dilnoza Niyatullo qizi	
A Methodology for Using Digital Educational Technologies in Preparing Students to Teach Subject-Specific Disciplines in English in Non-Philological Fields of Study	274
Mirzayeva Khilolakhon Bakhromali kizi	
Deviant xulqli o'smirlarda konfliktli xulq shakllanishida ota-ona-farzand munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	281
Otamirzayev Muzaffar Bahodir o'g'li	
Biologiya fanidan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning innovatsion metodlari va ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati.....	287
Xalilova Maqsad Ravshanovna	
Leading Schools for Gifted Students: Contextual Demands on the Principal and the Case for Creative Competence	293
Zarina I. Ganiyeva	
Aholi o'rtasida gipodinamiyani (kamharakatlikni) bartaraf etishda o'z-o'zini nazorat qilish usullari	297
Sharipova Faridaxon Akmaljon qizi	
Lobachevskiy geometriyasi: noevklid geometriyaning nazariy asoslari, geometrik xususiyatlari va ta'limdagi ahamiyati.....	301
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Adabiyot ta'limi jarayonida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	305
Sulaymonova Nafisa Sattorovna	
Ritmik she'r va harakatli mashqlar yordamida 1-sinf o'quvchilarining diqqatini jamlash	311
Yadgarova Iroda Ikromovna	
Mehrli maktab o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual modeli.....	314
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Bo'lajak shifokorlarda kasbiy-kommunikativ motivatsiyani xalqaro miqyosda rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	318
Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi	



Pedagogik ta'limda media savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari	322
Gulmonova Guli Anvar qizi	
Pedagogik diagnostika vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning individuallashtirilgan ta'limni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi	327
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash	333
Bozorova Muxlisa	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik faoliyat turlari.....	337
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilar individual rivojlanishini baholash yo'nalishlari.....	341
Alimov Azim Anvarovich	
O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarishning psixologik roli	347
Burtshova Aliya Burxonovna	
Talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik metodlarning integrativ imkoniyatlari.....	354
Nazarova Vazira Bahron qizi	
Tasviriy san'at ta'limida inklyuziv yondashuv va raqamli ta'lim muhitining integratsiyasi	359
Shodmonova Munisa Furkatovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvchanlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	365
Xoliqulova Dilnoza Sheraliyevna	
Jamoat transporti haydovchilarining psixoemotsional barqarorligini shakllantirishning nazariy-psixologik asoslari.....	369
Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna	
Игровые технологии как средство развития речевой активности детей с тяжёлыми нарушениями речи	375
Шакирова Ситора Абдугануровна	
Qo'l to'pi bilan shug'ullanuvchi talabalarda tezkorlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishning samarali usullari.....	380
Jo'rayev Nodirbek Nutfillo o'g'li	
Ценностно-смысловой потенциал поэзии Анны Ахматовой в формировании языковой личности и духовно-нравственном становлении учащихся: методический аспект	385
Жабборова Гулчехра Жобириевна	
Raqamli ta'lim sharoitida geoaxborot tizimlarini o'qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari...	391
Iskandarov Bayimbet Sobir o'g'li	
O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish yo'nalishlari	395
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini takomillashtirish	399
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	404
Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda kognitiv strategiyalardan foydalanish metodikasi	409
Sharopova Zarnigor Tolib qizi	



O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI INNOVATSION MENEJMENT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Abdullayev Amirulla Xazratovich

A. Avloniy nomidagi PMMI mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-0562-4424

Annotatsiya: Maqolada maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari asoslanadi. Tahliliy-strategik, kommunikativ-jamoaviy, tashkiliy-loyihaviy, resurs va risklarni boshqarish hamda monitoring-refleksiv yo'nalishlarning mazmuni, ustuvor vazifalari, amalga oshirish shakl va metodlari hamda kutilayotgan natijalari tizimlashtiriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti; o'zgarishlarni boshqarish; innovatsion menejment; maktab direktori; kompetensiya; monitoring; refleksiya.

Abstract: This article substantiates the conceptual directions for developing school principals' change management skills through innovative management. It systematizes the content, priority tasks, forms and methods of implementation, and expected outcomes of the analytical-strategic, communicative-team, organizational-project, resource and risk management, and monitoring-reflective directions.

Key words: educational management; change management; innovative management; school principal; competence; monitoring; reflection.

Аннотация: В статье обосновываются концептуальные направления развития навыков управления изменениями у директоров школ на основе инновационного менеджмента. Систематизируются содержание, приоритетные задачи, формы и методы реализации, а также ожидаемые результаты аналитико-стратегического, коммуникативно-командного, организационно-проектного, ресурсно-рискового и мониторингово-рефлексивного направлений.

Ключевые слова: управление образованием; управление изменениями; инновационный менеджмент; директор школы; компетентность; мониторинг; рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida globallashtirish, raqamlashtirish, ta'lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ta'lim sifatiga qo'yilayotgan yangi talablar maktab boshqaruvi mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda maktab direktori nafaqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi rahbar, balki ta'lim muassasasida yangilashlarni tashabbuskorlik bilan amalga oshiruvchi, pedagogik jamoani umumiy maqsad sari yo'naltiruvchi va o'zgarishlarni boshqaruvchi strategik lider sifatida namoyon bo'lishi zarur. OECD tadqiqotlarida ham maktab rahbarlarining vazifalari kengayib, strategik boshqaruv, ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashga doir yangi kompetensiyalarni talab qilayotgani ta'kidlanadi ^[1].

O'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalari rahbarning mavjud holatni tahlil qilish, muammolarni aniqlash, strategik maqsadlarni belgilash, manfaatdor tomonlarni jarayonga jalb etish, qarshiliklarni konstruktiv boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va natijalarni monitoring qilish qobiliyatlarini qamrab oladi. Innovatsion menejment esa mazkur ko'nikmalarni tizimli ravishda shakllantirish uchun metodologik va tashkiliy asos vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish ta'lim tashkilotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi maktab rahbarlarini o'zgarishlarning passiv ijrochisidan faol tashkilotchisi va innovatsion lideriga aylantirish zarurati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zgarishlarni boshqarish nazariyasida J. Kotterning konsepsiyasi tashkilotlarda o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, rahbarlik koalitsiyasini shakllantirish, strategik qarashni yaratish va natijalarni mustahkamlash zarurligini asoslaydi ^[1].

Ta'limdagi o'zgarishlarni o'rgangan M. Fullan esa innovatsiyalarning muvaffaqiyati insoniy munosabatlar, hamkorlik, kasbiy rivojlanish va tashkilotning ichki salohiyatiga bog'liqligini ko'rsatadi ^[2].

OECD materiallarida maktab rahbarlarini rivojlantirishda trening, murabbiylik, amaliy tajriba va refleksiyani uyg'unlashtirish samarali mexanizm sifatida ko'rsatilgan ^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. O'zgarishlarni boshqarishning nazariy modellari, maktab liderligi va innovatsion menejmentga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usulda o'rganildi. Shuningdek, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik diagnostika metodlari asosida maktab direktorlarining strategik rejalashtirish, kommunikatsiya, qaror qabul qilish, innovatsiyalarni joriy etish va monitoring ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlari belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish masalasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ta'lim tashkilotidagi har qanday yangilanish, avvalo, rahbarning o'zgarishlarga munosabati va boshqaruv kompetensiyalariga bog'liq. Maktab direktori innovatsiyani faqat yangi texnologiyalarni joriy etish sifatida emas, balki ta'lim muassasasining maqsadlari, tashkiliy madaniyati, pedagogik faoliyati va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks jarayon sifatida tushunishi lozim.

*O'zgarishlarni boshqarishning birinchi muhim yo'nalishi **strategik diagnostika va istiqbolni belgilash** bilan bog'liq.* Rahbar maktabning mavjud holatini obyektiv baholamasdan turib, samarali o'zgarish dasturini ishlab chiqishi qiyin. Shu sababli direktor ta'lim sifati, pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari, o'quvchilarning o'zlash-tirish ko'rsatkichlari, ota-onalar bilan hamkorlik, moddiy-texnik imkoniyatlar va raqamli infratuzilmani muntazam tahlil qilishi kerak. Diagnostika natijalari asosida mavjud muammolar ustuvorlik darajasiga ko'ra guruhlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha strategik maqsadlar belgilanadi. Bunday yondashuv qarorlarni subyektiv tasavvurlarga emas, balki dalillarga asoslangan boshqaruv tamoyiliga tayangan holda qabul qilish imkonini beradi.

*Ikkinchi yo'nalish – **strategik rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish**.* Innovatsion menejment sharoitida direktor qisqa muddatli vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilashi zarur. Strategik reja aniq maqsadlar, amalga oshirish muddatlari, mas'ul shaxslar, zarur resurslar va kutilayotgan natijalarni o'z ichiga olishi kerak. Rejalashtirish jarayonida SMART maqsadlaridan foydalanish, xavflarni oldindan baholash va muqobil harakat variantlarini ishlab chiqish rahbarning o'zgarishlarni boshqarish samaradorligini oshiradi.

*Uchinchi muhim yo'nalish **innovatsion liderlikni rivojlantirish** hisoblanadi.* Innovatsion liderlik direktorning yangi g'oyalarni qo'llab-quvvatlashi, pedagoglarning tashabbuslarini rag'batlantirishi va tajriba-sinov faoliyati uchun qulay muhit yaratishi bilan tavsiflanadi. Bunda rahbarning vazifasi tayyor qarorlarni jamoaga majburan qabul qildirish emas, balki pedagoglarni muammolarni aniqlash va ularning yechimini ishlab chiqish jarayoniga jalb etishdan iborat. Maktab rahbari innovatsiyaning tashabbuskori bo'lish bilan birga, uning metodik va tashkiliy sharoitlarini yaratuvchi koordinator sifatida faoliyat yuritadi.

*To'rtinchi yo'nalish **kommunikativ boshqaruv va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishdir**.* Har qanday o'zgarish ma'lum darajada noaniqlikni yuzaga keltiradi. Noaniqlik esa pedagoglarda xavotir, ishonchsizlik yoki yangilikka qarshilikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun direktor o'zgarishlarning maqsadi, kutilayotgan natijalari va amalga oshirish mexanizmlarini jamoaga aniq tushuntirishi kerak. Ochiq muloqot, fikr almashish, jamoaviy muhokama va muntazam qayta aloqa o'zgarishlarning ijtimoiy jihatdan qabul qilinishini kuchaytiradi. Hallinger va Murphy tomonidan ishlab chiqilgan maktab liderligi yondashuvida ham maqsadlarni belgilash va yetkazish, qaror qabul qilish, kommunikatsiya, nizolarni boshqarish hamda o'zgarish jarayonlarini muvofiqlashtirish rahbarlik faoliyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rsatiladi ^[4].

*Beshinchi yo'nalish **o'zgarishlarga qarshilikni boshqarish** bilan bog'liq.* Ta'lim muassasasida har bir yangilik bir xil darajada ijobiy qabul qilinmasligi tabiiy. Qarshilikning sabablari yangi texnologiyalarni bilmaslik, qo'shimcha ish yuklamasidan xavotirlanish, avvalgi tajribaga bog'lanib qolish, yangi tizim natijalariga ishon-



maslik yoki boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun direktor qarshilikni intizomiy muammo sifatida emas, balki o'zgarish jarayonidagi muhim boshqaruv signali sifatida ko'rishi maqsadga muvofiq. Bunday sharoitda murabbiylik, mentorlik va kasbiy hamkorlik samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. OECD tadqiqotlarida maktab rahbarlari kompetensiyalarini rivojlantirishda rasmiy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy tajriba, murabbiylik, fikr-mulohaza va kasbiy rivojlanishning o'zaro uyg'unligi muhimligi ko'rsatilgan ^[6]. Shu sababli maktab direktorlarini tayyorlash jarayonida nazariy seminarlar bilan cheklanmasdan, real boshqaruv vaziyatlarini modellashirish, case-study, loyiha faoliyati va refleksiv tahlilni qo'llash zarur.

Oltinchi yo'nalish raqamli transformatsiyani boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Zamonaviy maktab faoliyatida elektron hujjat almashinuvi, raqamli ta'lim platformalari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Bunday sharoitda direktor texnologiyaning o'zini emas, balki uning ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligiga ta'sirini baholay olishi kerak. Raqamli innovatsiyalarni joriy etishdan oldin ularning pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, texnik imkoniyatlar va kutilayotgan natijalar baholanishi lozim.

Yettinchi yo'nalish loyihaviy boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirishdir. Innovatsion o'zgarishlarni loyiha sifatida tashkil etish rahbarga jarayonning bosqichlari va natijalarini aniq belgilash imkonini beradi. Loyiha pasporti, maqsadlar daraxti, manfaatdor tomonlar xaritasi, xavflar reyestri, vaqt jadvali va monitoring indiktorlaridan foydalanish o'zgarishlarning boshqariluvchanligini oshiradi. Shu asosda direktor har bir innovatsion tashabbusni "muammo – maqsad – resurs – faoliyat – natija – baholash" mantiqiy zanjiri asosida tashkil etishi mumkin.

Sakkizinchi yo'nalish qaror qabul qilishning dalillarga asoslangan modelini joriy etishdir. Zamonaviy maktab boshqaruvida qarorlarning samaradorligi ularning faktik ma'lumotlar asosida qabul qilinishiga bog'liq. O'quvchilarning natijalari, pedagogik monitoring, davomat, ota-onalarning fikrlari, o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari va maktab faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish direktor tomonidan qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining ishonchligini oshiradi. Bu jarayonda ma'lumotlarni yig'ishning o'zi yetarli emas, balki ularni talqin qilish, muammoli tendensiyalarni aniqlash va natijalarga mos boshqaruv choralarini ishlab chiqish ham zarur.

To'qqizinchi yo'nalish monitoring va refleksiv boshqaruvni rivojlantirishdan iborat. O'zgarish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz takomillashtirish jarayonidir. Shu bois direktor amalga oshirilgan yangiliklar natijalarini muntazam o'lchashi, rejalashtirilgan va amaldagi ko'rsatkichlarni taqqoslashi hamda zarur hollarda strategiyani qayta ko'rib chiqishi kerak. Refleksiya rahbarga "Nima amalga oshirildi?", "Qanday natija olindi?", "Qaysi muammolar saqlanib qoldi?" va "Keyingi bosqichda nimani o'zgartirish zarur?" kabi savollarga tizimli javob topish imkonini beradi.

O'ninchi yo'nalish maktabda innovatsion tashkiliy madaniyatni shakllantirishdir. Innovatsion boshqaruvning barqarorligi faqat rahbarning shaxsiy faoliyatiga emas, balki tashkilotning umumiy madaniyatiga ham bog'liq. Agar maktabda xatolardan qo'rqmasdan yangi g'oyalarni sinab ko'rish, tajriba almashish, o'zaro yordam, ochiq muloqot va kasbiy o'sish qadriyatlarini shakllangan bo'lsa, o'zgarishlarni joriy etish jarayoni ancha samarali kechadi. OECDning maktab liderligi bo'yicha tadqiqotlari ham rahbarlikni rivojlantirishni individual trening bilan cheklamasdan, tizimli strategiyalar, kompetensiya profillari, murabbiylik va barqaror kasbiy rivojlantirish bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi ^[6].

Tahlil natijasida maktab direktorlarining o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishni diagnostik, strategik, kommunikativ, innovatsion, raqamli, loyihaviy va refleksiv komponentlarning o'zaro integratsiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Mazkur komponentlar alohida-alohida emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida rivojlantirilganda yuqori natija beradi.

Shu asosda direktor kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi izchil modeli taklif etiladi: diagnostika → maqsadli rejalashtirish → innovatsion tashabbus → jamoaviy jalb etish → amaliy joriy etish → monitoring → refleksiya → takomillashtirish. Ushbu ketma-ketlik o'zgarishlarni boshqarishni bir martalik ma'muriy topshiriqdan uzluksiz rivojlanish mexanizmiga aylantiradi.

Natijada maktab direktori uchta asosiy rolda namoyon bo'ladi:

- strateg, ya'ni rivojlanish yo'nalishini belgilovchi rahbar;
- innovator, ya'ni yangi g'oya va texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etuvchi tashabbuskor;
- lider, ya'ni pedagogik jamoani umumiy maqsad atrofida birlashtiruvchi shaxs.

Bunday rahbarlik modeli maktabning tashkiliy moslashuvchanligini, pedagoglarning innovatsion faolligini va ta'lim sifatinı oshirishga xizmat qiladi. Maktab rahbarlarining samarali liderligi ta'lim natijalarini yaxshilash va islohotlarni barqarorlashtirishda muhim omil ekanligi xalqaro tadqiqotlarda ham qayd etilgan.



XULOSA

O'rganish natijalari o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini innovatsion menejment asosida rivojlantirish maktab direktorining zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim yo'nalishi ekanini ko'rsatdi. Strategik rejalashtirish, kommunikatsiya, innovatsion liderlik, raqamli boshqaruv, loyihaviy faoliyat, monitoring va refleksiya o'zaro integratsiyalashganda boshqaruv samaradorligi ortadi. Shu bois direktorlarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida amaliy vaziyatlar, mentorlik, diagnostika hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga asoslangan kompleks modelni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pont B., Nusche D., Moorman H. Improving School Leadership. Volume 1: Policy and Practice. Paris: OECD Publishing, 2008. DOI: 10.1787/9789264044715-en.
2. Kotter J. P. Leading Change. Boston: Harvard Business School Press, 1996.
3. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 4th ed. New York: Teachers College Press, 2007.
4. Hallinger P., Murphy J. Instructional Leadership in Effective Schools. 1986.
5. Stoll L., Temperley J. Improving School Leadership: The Toolkit. Paris: OECD Publishing, 2010. DOI: 10.1787/9789264083509-en.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.